

CHIG‘ATOY ULUSIDA ETNIK IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING O‘RGANILISHI

Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD

E-mail: stb.uz.com@gmail.com

Dunyo tarixida mavjud bo‘lgan imperiya va saltanatlarni o‘rganishga qiziqish yuqori bo‘lib kelgan. Xususan, yagona davlatchilik tizimiga ega bo‘lmagan holda, harbiy kuch qudratini oshirish bilan ulkan davlatga asos slogan qabila va urug‘ birlashmalarining bosib o‘tgan yo‘li alohida “fenomen” bo‘lib kelmoqda.

Jahonning juda ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda Chingiziyalar tomonidan Eronda Xulagular (1256-1353) davlatiga asos solinishi va Dashti Qipchoq, Rus yerlarini o‘z ichiga olgan Oltin O‘rda davlatining vujudga kelishi hamda ularning bu davrda mintaqada kechgan, ijtimoiy-iqtisodiy, etnik jarayonlarni yoritib berishga katta e‘tibor berilgan. Markaziy Osiyodagi Chig‘atoy ulusining (1227-1370) esa, bugungi kunga qadar deyarli faqat siyosiy tarixi ma‘lum darajada yoritilgan.

Geostrategik jihatdan mo‘g‘ul imperiyasining markazida joylashgan hamda ancha yillar davomida xoqon va Oltin O‘rda xonlari uchun asosiy tayanch bo‘lib kelgan Chig‘atoy ulusining ma‘muriy-boshqaruv tizimi, etnik-ijtimoiy hayotda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar hali-hanuz atroflicha tadqiq qilinmagan. Vaholanki, Chig‘atoy xonadoni vakillarining deyarli bir yuz ellik yillik hukmronligi Markaziy Osiyo siyosiy-ma‘muriy va harbiy qolaversa, ijtimoiy muhim o‘zgarishlarga olib kelgan hamda yangi joriy qilingan markaziy idora usulining ko‘p jihatlari keyingi davrlarda davlat boshqaruv tizimlarida saqlanib qolishga asos bo‘ldi.

“Yurtimizda mustaqillikning dastlabki yillarida milliy davlatchilik tarixining asoslarini yanada chuqurroq o‘rganish masalasi kunning ustuvor vazifasi sifatida belgilangan bo‘lib, eng kam yoritilgan muammolarni ochib berishga, “milliy o‘zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu masalada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”ga alohida urg‘u berilmoqda”.²⁹⁹ Shu jihatdan, Chig‘atoy ulusi tarixini kompleks o‘rganish XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixi va etnik ijtimoiy jihatlarning bir qator muammoli vaziyatlariga oydinlik kiritib o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy manbalarni saqlash, tadqiq qilish tizimini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi qarori va sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu bitiruv malakaviy ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

XIII-XIV asrlar tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida bu davrdagi etnik jarayonlar tarixi nafaqat O‘zbekistonda, balki xorij tadqiqotlarida ham deyarli o‘rganilmagani aniqlandi. Mavzuning ayrim jihatlari Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid sharqshunoslik, lingvistlik, arxeologik, antropologik va etnografik tadqiqotlarda tilga olingan, xolos. Bu davrdagi boshqaruv, ijtimoiy-etnik va savdo-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlarning Markaziy Osiyoda, jumladan, Movarounnahrda qanday kechganligi tadqiqotchilar tomonidan maxsus o‘rganilmagan. Mo‘g‘ullar davri tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar;
- Arab va forslar tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar;

²⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Parlamentga Murojaati/<https://president.uz/uz/lists/view/2228>

- XIX-XX asr boshlarida yaratilgan rus sharqshunoslarining asarlari;
- O‘zbekistonlik olimlar tomonidan mustaqillik yillarida hamda bugungi kunda olib borilgan ilmiy izlanishlar;

- Xorijlik olimlarning mo‘g‘ullar tarixini yoritishga oid dastlabki tadqiqotlari XIX asrning birinchi yarmidan boshlanib, bugunga qadar davom etib kelmoqda.

Mo‘g‘ul davlati tarixining u yoki bu jihatlati D.Osson, E.Bretshnayder, E.Oliver, P.Grusse, J.Sanders, B.Shpuler, D.Morgan, T.Ollsen, Biran M. kabi G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlar ilmiy asarlarida, asosan, Chingizxon imperiyasining umumiy holati yoritilgan bo‘lib, ularda Chig‘atoy ulusi tarixi yirik mo‘g‘ul imperiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqilgan xolos. Ular orasida faqatgina E.Oliverning maqolalari Chig‘atoy ulusidagi siyosiy, ijtimoiy-etnik hamda uning ma‘muriy tuzilishi masalalari qisman aks etgan.

XX asr Sharq umumiy tarixi Mo‘g‘ul davrining beqiyos tadqiqotchisi Akademik V.V.Bartold (1869-1938) arab, fors va turkiy tillarni bilgan. Uning asosiy qiziqishi Markaziy Osiyo tarixi edi. Ushbu olim ham bir qancha ilmiy izlanishlarida Mo‘g‘ul davlati hamda uning boshqaruvi qolaversa, hukmdorlari haqida aniq va ilmiy xulosalar berib o‘tgan.

XX asrning 90-yillaridan boshlab jahon miqyosida Chingizxonning vorislari boshqargan davlat tuzilmalari bilan bir qatorda Chig‘atoy ulusi tarixini yoritishga bo‘lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Bu borada isroillik olim M.Biranning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga va salmoqli o‘ringa ega.³⁰⁰

Uning asarlarida Chig‘atoy ulusidagi diniy hayot, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalar, XIII asrning ikkinchi yarmidan XIV asr boshlarigacha mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyodagi hukmronligida asosiy o‘rinni egallagan hukmdorlardan biri Qayduxon boshqaruvi masalalari o‘z aksini topgan.

U o‘z tadqiqotlarida fors va arab tilidagi manbalardan tashqari, asosan xitoy tilidagi ilmiy adabiyotlardan hamda Turfondan topilgan chig‘atoy davri hujjatlardan foydalangan. Ushbu uyg‘ur tilidagi rasmiy idora hujjatlari Dai Matsui tomonidan o‘rganilib, Chig‘atoy ulusidagi iqtisodiy hayotni yoritishda muhim hisoblanadi. Bu hujjatlar ko‘proq soliq masalasida hukmdorlar tomonidan chiqarilgan farmonlardan iborat.

Shu o‘rinda Chig‘atoy ulusi siyosiy tarixiga oid bir qancha asarlar muallifi xitoylik olim Lyu Inshenning ilmiy faoliyati haqida to‘xtalib o‘tish kerak. U o‘zining ingliz va xitoy tillarida chop etgan ilmiy ishlarida XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlarning ko‘p jihatlarini xitoy manbalari asosida tahlil qilgan.

XIII-XIV asrlarda Chig‘atoy ulusining etnik-ijtimoiy munosabatlari va ushbu jarayonlarni manbalar asosida tadqiq etishdan lozim. Ayniqsa, XIII-XIV asrlarga oid tarixiy, geografik, memuar yo‘nalishdagi ko‘plab arab-fors tilidagi manbalarni o‘rganish va ulardagi Movarounnahr aholisi etnik tarixiga oid ma‘lumotlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shunigdek, Chig‘atoy ulusi va Movarounnahr aholisi etnik tarixining XIII-XIV asrlarga oid yozma manbalarda va tadqiqotlarda aks etishini qiyosiy taqqoslash etnik-ijtimoiy munosabatlarni aniqlash va to‘g‘ri xulosalar shakllanishiga olib keladi. Shu boisdan, Chig‘atoy ulusi Movarounnahr aholisining etnik tarkibi, joylashuvi, turki va mahalliy etnoslarning holati va borada noma‘lum qolgan masalalarga oydinlik kiritish o‘ta muhim.

Chig‘atoy ulusida etnik ijtimoiy munosabatlarning o‘rganilishi ahamiyati shundaki, undan Markaziy Osiyo xalqlari, xususan XIII-XIV asrlar o‘zbek xalqi etnik tarixiga doir mavjud tadqiqotlarni yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirishda hamda “Tarixiy manbashunoslik”, “Etnologiya”, “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” kabi fanlardan darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin bo‘ladi. Shunigdek, O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davri hamda o‘zbek xalqining etnik tarixini dunyo hamjamiyati va xalqimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish, mavjud ma‘lumotlar bazasini kengaytirish borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarida qayd etilganidek, jahon tarixini, umumbashariy taraqqiyot yo‘lini chuqur idrok etish zarurdir va busiz tarixiy taraqqiyot tajribalaridan zarur saboqlar olib bo‘lmaydi.

³⁰⁰ Biran M. Qaidu and the rise of the independent Mongol state in Central Asia. – Curzon, 1997. – 198 p.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bernard O’Kane, “Chaghatai Architecture and the Tomb of Tughluq Temür at Almaliq,” *Muqarnas: An Annual on the Visual Culture of the Islamic World*, 21 (2004): 277-287.
2. Bretschneider E. *Medieval Researches From Eastern Asiatic Sources. Volume 1.* London, K. Paul, Trench, Trubner&co., ltd. 2016. – 344 p.
3. *The encyclopaedia of islam. New edition.* Edited by an editorial committee consisting of H.A.R.Gibb, J.H.Kramers, E.Levi-Provencal, J.Schacht. Assisted by S.M.Stern as secretary general (pp. 1-320). Volume I. – Leiden: E.J.Brill, 1986.
4. *The Travels of an Alchemist: The Journey of the Taoist Ch’ang-Ch’un from China to the Hindukush at the Summons of Chingiz Khan.* Recorded by His Disciple Li Chih-Ch’ang. Tr. and introd. by Arthur Waley (London: Routledge, 1931).
5. Бартольд В.В. *Очерк истории Семиречья. Сочинения. Т. II. Ч. I.* Москва: Наука, 1963.
6. Бартольд В.В. *Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. I.* Москва: Наука, 1963.
7. Bekmuradov S.T. “Al-Mulhakat Bi-S-Surah” and Translations with Notes of the Chapter about History of Mongols // *International Journal of Central Asian Studies. Korean University of International Studies. №22.* – South Korea, 2018. – P. 171-192.
8. Бекмурадов С.Т. *Чигатой улуси бошқарувида аёлларнинг ўрни // Шарқ машъали.* – Тошкент, 2020. №2. – P. 147-159.
9. Biran M. *Qaidu and the rise of the independent Mongol state in Central Asia.* – Curzon, 1997. – 198 p.